

## ALISHER NAVOIY QARASHLARI – MILLIY G‘OYAMIZ POYDEVORI

**Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna**

*Namangan davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori*

**Burxonova Madinabonu Sayidkamol qizi**

*Namangan davlat universiteti doktoranti*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, milliy g‘oya, estetik tafakkur, badiiy meros, milliy qadriyatlar, yoshlar, ma‘naviy-axloqiy qarash, ilm-ma‘rifatli bo‘lish.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy badiiy merosining yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash va estetik tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni masalalari ijodkorning falsafiy qarashlar asosida tahlil etilgan. Navoiyning ma‘naviy-axloqiy qarashlaridagi ilm-ma‘rifatli bo‘lish g‘oyalari e‘tibor qaratilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy-estetik merosi buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan boy asarlar va ma‘naviyat durdonalari orqali kelajak avlodlarga yetib kelmoqda. Shunday mutafakkir, xalqparvar shoir, yuksak ma‘naviyat namunasi bo‘lgan Alisher Navoiy ijodiyoti barchaning qalbidan chuqur joy olgan. Uning ko‘plab asarlari o‘zidan keyingi avlodlarga ma‘naviyat va ma‘rifat nurlarini taratib, badiiy-estetik meros sifatida xalqimizning qalbida yashab kelmoqda. U yaratgan falsafiy dunyoqarashi va adabiy meros durdonalari bugungi kunda yosh avlodni milliy g‘oyamiz hamohang tarzda tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Alisher Navoiyning har bir so‘zi, inson va bashariyat, ijtimoiy hayot va jamiyat uchun qilgan xizmatlari, go‘zallik dunyosi, nafasat olamiga doir qarashlari doimo yoshlarning bilim va ijod dunyosi rivojiga yo‘l ochgan.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha‘n-u-sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Bobomiz yaratgan ummondan bahramand bo‘lmagan inson yo‘q, chunki o‘qishni bilmagan bola ham maktabga kelguncha uning she‘rlaridan namunalarni yod olgan bo‘lishi tabiiy. Necha asrlar o‘tsa hamki, ul zot yaratgan o‘lmas asarlar hanuzgacha sevib o‘qilmoqda. Hikmatlar guldastasi, g‘azal va dostonlari yuksak insoniy fazilatlar bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, inson ma‘naviy kamolotining duru javohiridir.

Alisher Navoiyning butun umri davomidagi inson tabiati va ma‘naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta‘limiy xulosalari “Xamsa”, “Nazmul javohir”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolisun nafois”, “Arba‘iyn” kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Navoiy haqida yozilgan manbalar uning shaxs sifatida himmatli, inson sifatida hurmatli, ustozlargasadoqatli shogird bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning himmatliligi, avvalo, iste‘dodli insonlarni iqtisodiy-ma‘naviy qo‘llab-quvvatlaganida namoyon bo‘ladi. Ustozlarga hurmatini “Nasoyim ul-muhabbat” da Navoiy o‘zi uchun qadrlil va hurmatli bo‘lgan juda ko‘p insonlarniehtiro bilan

yodga olib o'tganida ko'rishimiz mumkin. Bobo Piri, Bobo Xokiy, Mavlon Sharafiddin Yazdiy va boshqalar haqida o'z bilganlarini bayon etgan. Masalan, Navoiy o'zining bolalik chog'ida mashhur tarixchi Sharafiddin Yazdiy bilan uchrashgani to'g'risidagi hikoyani keltirib: "Bu haqir sig'arisinda ul buqhada alar xizmatlariga musharrafbolub, mening boramda fotihalar o'qudilar"[1], – deydi va uni "donishmand va sohibjamol kishi", deb ta'riflaydi. Mazkur asarda Navoiyning tarjimai holi, uning atrofidagi kishilar, do'stlari va ustozlari to'g'risida qo'shimcha muhim ma'lumotlar mavjud[2]. Bu o'rinda Hazrat bobomizning quyidagi hikmatli so'zlari xarakterlidir:

*Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay xo'broq bo'lg'ay, agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.*

"Go'zal va yoqimli, yana dil bilan bir bo'lgan til yaxshiroqdir",[3] – deb ta'kidlanadi ushbu hikmatda. Jamiyatda go'zal va yoqimli, dil bilan bir bo'lgani holda bu birlikni yo'qotmasdan muomalada bo'lish, hayotda pok niyatli, oq ko'ngil, xushmuomala, to'g'riso'z, shirinso'z kabi insoniy fazilatlar qatorida barchani xushnud qila bilishni aytadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, biz tili boshqa-yu, dili boshqa bo'lmaslik kerak degan xulosani chiqarishimiz lozim. Insonning dili qanchalik obod bo'lsa, zaboni ham dildagi yumshoqlik, halimlik asosida yo'g'rilgan iliq munosabatdan iborat bo'ladi. Jamiyatda o'zining o'rnini topadi va el orasida hurmat-e'tibor qozonadi. Bunday insonlar yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lib, el xizmatini sidqidildan bajaradilar.

Hazrat bobomizning quyidagi hikmatli so'zlari ham diqqatga sazovordir:

*Gulshane keldi jismi insoniy, Nutq aning bulbuli xushalxoni.*

Yani, "inson jismi bir gulshan bo'lsa, til esa uning xushovoz bulbulidir" [4]. Ko'rinadiki, jism bir gulshan, gulshanning xushovoz bulbuli til. Darhaqiqat, bog'ni bog' qilgan ana shu bulbulning nolasi emasmi? Bulbulsiz bog' bo'lmaganidek, tilsiz jism ham bo'lmaydi. Til orqali inson go'zal. Insonning go'zalligi til bilan ekanligini his qilish lozim. Inson ruhiyatining kaliti ham ana shu tildir. Tilimizdan chiqayotgan har bir so'z insoniy qiyofamizni belgilaydi. Bulbul nechog'li chiroyli sayrashi tufayli shu nomga loyiq deb topilgan ekan, inson o'zining "shirin tili" tufayli tilimizning naqadar jozibali ekanligini ko'rsatadi.

Buyuk shoir "Mahbub ul-qulub" asarida o'z kuzatishlari xususida quyidagilarni yozadi: "Har ko'cha-ko'yda yuribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonlikning aslini ham, zahrini ham ta'tib ko'rdim. Goh pastkash va baxil kishilar qoshida xo'rlandim va razil-nokaslar oldida e'tiborsiz bo'ldim. Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlarida insoniylik sha'nini belgilovchi xislatlardan biri insof va diyonat deb ko'rsatadi[5]. "Lison ut tayr" asarida insofsiz kishini odam emas deb e'lon qiladi.

*Odamg'a yaxshi ko'p avsof erur, Lek alarning ashrofi insof erur. Kimgakim insof yo'q – inson emas, Munsiz atvorida juz nuqson emas[6].*

Professor S.Nishonovanning fikricha[6], Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan chin insoniy fazilatlar ijodkorlik, o'zlikni anglashga kuchli ishtiyoq, ilm-fanga muhabbat kabi xislatlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki baxtli hayotga intilgan ijodkor, oqil, qobiliyatli har bir kishi o'zining kuch-quvvati va aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning inson tafakkuri, ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va roli xususida so'z yuritar ekan, ilmni qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi[7].

Tadqiqotchi olim A.Qayumov ta'kidlab o'tganidek, Navoiyning ustozlari e'tirofi borasida yozgan asarlari, fikr-mulohazalari ham alohida e'tiborni tortadi[12]. 1492-1494-yili Navoiyo'zining eng yaqin do'stlari va maslakdoshlaridan biri bo'lgan ustoz Abdurahmon Jomiy xotirasiga bag'ishlangan "Xamsat ul-mutahayyiriyin" asarini yozganligi ma'lum. U Navoiy va Jomiy o'rtasidagi ustoz va shogirdlik, ijodiy hamkorlik to'g'risida ma'lumot yetkaza olishi bilan

diqqatga sazovordir. Hirot fozillaridan Xoja Abdulaziz Jomiy haqida Navoiy shunday deb yozadi: “Va bu faqir borasida iltifotlari ko‘p erdi va ko‘p qatla fotihabilan duoi xayr qilibturlar, umid ulki, mustajob o‘lmish bo‘lg‘ay”[7,12]. Adabiyotshunos olim Aziz Qayumov: “Navoiy o‘z o‘quvchisining yurak sirlarini ham bayon etadi” deya izohlaydi”[12,15].

Bizningcha, Navoiy she‘rlarini faqat shoir qalbidagi kechinmalar in‘ikosi deb qabul qilmay, balki umuminsoniy tuyg‘ularning umumbashariy qonuniyatlar asosida ko‘rsatilmog‘i deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi”[10]. Ayni damda shoir ta‘maga qarshi kurashish zaruriyatini ham o‘z asarlarida bildirib o‘tgan. Hatto ta‘magirlikni qoralash shoirning ta‘lim-tarbiyaishidagi asosiy printsiplaridan bo‘lgan. “Lison ut-tayr”da Navoiyning boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi shoir hayoti, kundalik turmushida sodir bo‘lgan ayrim ko‘rinishlarning tasvirini topamiz. Darhaqiqat, “Lison ut-tayr”ning oxirida “Bu kitob nazmida o‘z munosabatining taqribi” sarlavhali bob bo‘lib, unda Navoiyning maktabda o‘qib yurgan paytida Atorning “Mantiq ut-tayr” dostonini qanchalar berilib o‘qigani to‘g‘risidagi ma‘lumot bor. Shu ma‘lumot asosida yana Navoiy bolalikda tahsil olgan maktabda o‘qish-o‘qitish jarayoni qanday uyushtirilgan ekanligidan xabar topish, o‘sha maktabdagi o‘quv dasturi to‘g‘risida tushuncha hosil qilish, o‘qish jarayoni va o‘qitish usuli bilan tanishish mumkin. Chunki shoir bu o‘rinda o‘zi bolalik chog‘ida o‘qigan maktabda o‘qishning qanday uyushtirilganligini esga olib o‘tadi.

Donishmand bobomiz ilm olib unga amal qilmagan kishini urug‘ sochib hosilidan bahra olmagan kishiga o‘xshatadi. Yomg‘irning bir tomchisi tuproqqa jon baxsh etgani kabi insonga ham naslnasabi, boyligi emas, hayosi, ilmu odobi shon-sharaf keltirishini qayta-qayta ta‘kidlaydi. O‘zining ta‘limiy-axloqiy g‘oyalarini ilm bilan bog‘liqlikda deb tushungan shoir “Nazmul javohir” asarida shunday deb yozadi:

*Kim olim esa nuqtada barhaq de oni, Gar bazm tuzar behishti mutlaq de oni. Har kimsaki yo‘q ilm anga axmaq de oni, Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmaq de oni.*

Buyuk shoirning fikricha, ilmli, oqil kishi har qanday mashaqqatni yengib o‘tadi, o‘z maqsadi yo‘lida to‘siqlardan cho‘chimaydi. Ilmning vazifasi insonning baxt-saodatiga xizmat qilishdir. Ammo ilm o‘rganmoq boyluk orttirish uchun emas, imon-e‘tiqodni mustahkamlash uchundir. Bu borada ustozlikni dunyoda eng murakkab, ammo xayrli, sharafli kasb degan xulosaga keladi. Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitishranj ila, Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila. Agar shogird vaqti kelib shoh bo‘lsa-da ustozni oldida qarzdordir. Ilm ezgu amallar, jamiki fazilatlar manbai sifatida har bir kishining insoniy burchiga aylanadi. Shu tufayli o‘zlikni anglash, komillik odobi egallash xalq baxt-saodati, farovon turmush kechirishi, vatan ravnaqi yo‘lida kamarbasta bo‘lishdek ezgu maqsadga qaratiladi.

Alisher Navoiyning ma‘naviy-axloqiy qarashlarida ilm-ma‘rifatli bo‘lish bilan birga sabr, tavoze, adab, saxiylik, himmat, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, mehr-muruvvat, vafo, karam, yumshoq ko‘ngillilik kabi chin insoniy fazilatlar targ‘iboti ham alohida o‘rin tutadi. Mazkur xislatlarni ta‘rif-tavsiflashdan tashqari munofiqlik, zulmkorlik, aldoqchilik, yolg‘onchilik, besabrlik kabi ularning ziddi bo‘lgan illatlardan qutulishga ham da‘vat etadi. Shoir yozadi:

*Uch fe‘l kishiga erur qotil, Qotillik aro zahri haloxil oxir. Bu xil angla birin, birin havo bil oxir, Qil ujbni ham alarga doxil oxir.*

Yoshlarni yuksak axloq-odoblarni ruhida tarbiyalash xususida so‘z yuritar ekan, quyidagilarni qayd etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab kichikinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘nglida adabiy qoladi.”

Ko‘rinadiki, Navoiy ta‘rifida odob jamiki insoniy fazilatlar boshida turadi. Buyuk shoir nazdida qanoat baayni buloqdir. Uning suvini olgan bilan qurimaydi; baayni xazinadir – naqdisini sochgan

bilan kamaymaydi; ekinzordir – urug‘i izzat va shavkat mevasini beradi; daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi. Sabr – achchiqdir, ammo foyda berguvchi; qattiqdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitiva bandlar ochqichidir. Saxiylik – insoniylikning haqiqiy mezonidir, odamlarning mushkulini oson qiladi. Yaxshilik, karam bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘ta qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Kimki bu xislatlarni egallasa, cheksiz izzat va hurmatga sazovor bo‘ladi.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy o‘z ijodiyoti bilan asrlar osha komil inson tarbiyasiga beminnat xizmat qilib kelmoqda. “Eng katta boylik,- degan edi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga Murojaatnomasida, –bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.” Bu borada Alisher Navoiy asarlari bebaho xazina hisoblanib, yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashga muhim manba vazifasini o‘taydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1 – 2-jildlar /Mas‘ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. I jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2011.
3. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – Toshkent: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
4. Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Muhokamat-ul lug‘atayn (nashrga tayyorlovchi:Q.Ergashev). O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2011. – B. 512-537.
5. Ishaqov. Y. So‘z san‘ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
6. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol,2003, 195-bet.
7. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009.
8. Muhiddinov M.Q. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent:Ma‘naviyat, 2005.
9. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
10. Sobirova M. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Namangan: Arjumand media. 2023, – V.512.
11. G‘afforova Z. Alisher Navoiyning hamd va na‘t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili. Fil.fan.b. falsafa doktori (PhD) diss. Samarqand, 2020.
12. Qayumov A. Asarlar. 2-jild. Navoiyning “Qush tili” dostoni. Go‘zalliklar va nodirliklar. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2008.
13. Quadratullayev H. Navoiyning adabiy-estetik olami. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. B. - 110.